

MUSTAQILLIK DAVRIDA DINIY-MA'RIFIY SOHADA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Vaydullaev Ahmad Muhammadjonovich

“Imom Termizi” o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi

O'quv-uslubiy ishlar bo'limi boshlig'i

ЗНАЧЕНИЕ РЕФОРМ, ОСУЩЕСТВЛЕННЫХ В РЕЛИГИОЗНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ СФЕРЕ В ПЕРИОД НЕЗАВИСИМОСТИ


Вайдуллаев Ахмад Мухаммаджонович,

*Начальник отдела учебно-методической работы среднего
специального исламского учебного заведения «Имам Термизи»*

THE SIGNIFICANCE OF REFORMS IMPLEMENTED IN THE RELIGIOUS AND EDUCATIONAL SPHERE DURING THE INDEPENDENCE PERIOD

Vaydullaev Ahmad Muhammadjonovich

*Head of the Educational and Methodological Department
at the “Imam Termizi” Secondary Special Islamic Educational
Institution*



E-mail:

ahmad234@mail.ru

Tel:

+998994223757

Orcid: 0009-0004-3020-
2719

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar va ularning jamiyatda ekstremizm va radikal g'oyalarga qarshi kurashdagi o'rni yoritiladi. Islohotlar doirasida diniy erkinlikni ta'minlash, diniy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, diniy bag'rikenglik tamoyillarini mustahkamlash hamda yosh avlodni ma'rifat asosida tarbiyalash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, diniy-ma'rifiy islohotlar, radikalizm, ekstremizm, diniy ta'lim, ma'naviy tarbiya, bag'rikenglik, barqarorlik, yoshlar, milliy xavfsizlik.

Аннотация. В данной статье освещаются широкомасштабные реформы, осуществлённые в религиозно-просветительской сфере после обретения Узбекистаном независимости, а также их роль в противодействии экстремизму и радикальным идеям в обществе. Анализируются меры, принятые в рамках реформ, по обеспечению религиозной свободы, развитию религиозных учебных заведений, укреплению принципов религиозной терпимости и воспитанию молодёжи на основе просвещения.

Ключевые слова: Независимость, религиозно-просветительские реформы, радикализм, экстремизм, религиозное образование, духовное воспитание, терпимость, стабильность, молодёжь, национальная безопасность.

Abstract. This article highlights the large-scale reforms implemented in the religious and educational sphere following Uzbekistan's independence, and their role in countering extremism and radical ideologies in society. The article analyzes measures taken within the framework of these reforms to ensure religious

freedom, develop religious educational institutions, strengthen the principles of religious tolerance, and educate the younger generation based on enlightenment and knowledge.

Keywords: *Independence, religious and educational reforms, radicalism, extremism, religious education, spiritual upbringing, tolerance, stability, youth, national security.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Davlatimiz mustaqilligi e'lon qilingandan boshlab, yurtimizda barcha sohalar qatori ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va diniy sohalariga ham yuksak e'tibor qaratildi. Dinga bo'lgan munosabat ijobiy tomoniga o'zgardi, sobiq sovet tizimining ateistik hujumkorlik siyosatiga barham berilib, vijdon erkinligi qonun asosida kafolatlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi ilk xalqaro nutqida katta tashabbus bilan chiqib, *“Islomning umumbashariy sivilizatsiyasiga benazir hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ko'p qirrali diniy-ma'naviy merosini o'rganishga ixtisoslashgan xalqaro ilmiy tadqiqot markazini Samarqanddagi Imom Buxoriy yodgorlik majmui qoshida yaratilishi* taklifini bildirdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining beshta ustuvor yo'nalishdagi rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining diniy sohadagi barcha tashabbuslari muhim ahamiyatga ega ekanini alohida ta'kidlash lozim [1].

Mazkur hujjatning beshinchi yo'nalishi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda qadimda va yaqin o'tmishdagi buyuk ajdodlarning ilmiy merosini o'rganish samimiylilik, tinchlik va bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga, yoshlar o'rtasida ekstremizm va terrorizm g'oyalarining oldini olishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi belgilab qo'yilgan. Din sohasidagi keyingi yirik tashabbuslardan biri Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonni imzolashi bo'ldi. Ushbu Markazning ochilishi orasidagi ishlar nufuzli xalqaro islomiy tashkilotlar tomonidan ham e'tirof etildi.

Tarixiy-ilmiy merosni tiklash sohasidagi tashabbuslarning mantiqiy davomi sifatida Toshkent shahrining Hazrati Imom majmuasi tarkibida qad rostlayotgan Islom sivilizatsiyasi markazini qayd etish lozim. Markaz faoliyatining asosiy maqsadi, yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati, ular qoldirib ketgan boy ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish, ular bilan xalqimiz va jahon jamoatchiligini keng tanishtirish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo'lga qo'yish, islom dinining insonparvarlik mohiyatini ochib berish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdan iborat [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Mustaqillikdan keyin fuqarolarimizning din bilan bog'liq huquq va manfaatlarini to'liq amalga oshirish, diniy va milliy qadriyatlarni tiklash sohasida qator ishlar amalga oshirildi. Eng avvalo, vijdon erkinligining huquqiy bazasi mustahkamlandi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega” ekanligi mustahkamlab qo'yildi. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi normalarning qonunchilikka kiritilishi natijasida diyorimizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din vakillariga katta imkoniyatlar yaratildi. Jumladan, mustaqillikgacha respublikada bir necha cherkov va sinagogalar faoliyat olib borgan bo'lsa, qonun qabul qilingach, dunyoning turli mintaqalarida diniy ibodatlarini amalga oshiruvchi Yevangel-Lyuteran jamoasi, Rim-katolik cherkovi, “Yettinchi kun adventistlari” diniy tashkiloti, Bahoriylar jamoasi, yahudiylar diniy jamoasi kabi o'ndan ortiq diniy konfessiyalar yurtimizda rasmiy faoliyat yurita boshladi. Ammo yaratilgan imkoniyatlarga qaramasdan ayrim diniy oqimlar faqat diniy g'oya va aqidalarni emas, balki siyosiy va ekstremistik maqsadlarni ko'zlab ish olib borganlari achinarli holdir [3].

Xorijiy davlatlardan diniy aqidaparastlikni targ'ib etuvchi, odamlarda qo'rquv va vahima uyg'otuvchi ko'plab diniy adabiyotlar "Xizb-ut tahrir", "Akromiylar", "Tavba", "Adolat uyushmasi" kabi ekstremistik guruhlar tomonidan ommaga tarqatilib, mamlakat barqarorligiga rahna solishga qaratilgan harakatlar yuzaga kela boshladi. Shu bilan birga, asosiy maqsadi millat va jamiyatni diniy asosda bo'lib tashlash bo'lgan missionerlik harakatlari turli yo'llar bilan yurtimizga suqulib kira boshlagan edi.

Bu kabi holatlar "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. 1998-yil 1-may kuni O'zbekistan Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning 23-moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi. Bu qonunni ishlab chiqishda mamlakatimizning o'ziga xos sharoiti, unda yashovchi aholining huquq va manfaatlari hamda mentaliteti hisobga olindi [4].

Qonunning asosiy maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat'iy nazar, fuqarolarning tengligini ta'minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Mustaqillik davrida diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan islohotlar birinchi galda fuqarolarning diniy erkinligini ta'minlash, tarixiy va madaniy merosni tiklash, diniy ta'lim muassasalarini rivojlantirish, yoshlarni ma'rifat va bag'rikenglik ruhida tarbiyalash kabi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilgan islohotlarning jamiyat barqarorligi va radikal g'oyalarning oldini olishdagi muhim o'rnini ko'rsatib beradi. Bu islohotlar orqali xalqning o'z diniy an'alariga hurmatini oshirish, ijtimoiy totuvlikni mustahkamlash va milliy ongini yuksaltirish imkoniyatlari yaratildi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilgan islohotlar nafaqat jamiyatda diniy bag'rikenglikni ta'minlash, balki radikalizm va ekstremizmning oldini olishda ham

muhim ahamiyat kasb etdi. Mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, O'zbekiston davlat organlari o'zining ichki va tashqi siyosatini yangilashda, diniy erkinlikni ta'minlashda va milliy xavfsizlikni mustahkamlashda izchil islohotlar olib bordi. Diniy-ma'rifiy islohotlarning asosiy maqsadi jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish va radikal g'oyalarni yo'q qilishdan iborat edi [5].

Shu bilan birga, diniy ta'limni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda tashkil etish va diniy sohada kadrlar tayyorlash bo'yicha o'tkazilgan islohotlar, jamiyatda diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Mustaqillik davrida amalga oshirilgan diniy-ma'rifiy islohotlar O'zbekistonda vijdon erkinligini ta'minlash, jamiyatda bag'rikenglik muhitini mustahkamlash va radikalizmga qarshi kurashishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu islohotlar nafaqat jamiyatda barqarorlikni saqlab qolish, balki yosh avlodni ma'rifatli va ilmiy ravishda tarbiyalash, diniy bag'rikenglik va ijtimoiy totuvlikni rivojlantirishga ham yordam berdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Babadjanov B., Kamilov M. Muhammad Hindustani (1892-1989) and the beginning of the "Greatest Schism" among the Muslims of Uzbekistan. – Pp.195-220.
2. Boboxonov Sh. So'nmas Ziyo. – Toshkent. 1998.
3. Ibrohim Gofur. Mulla Hindustoniyning boshidan kechirganlari. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, №№ 33 (14 avgust).
4. Jalolov A., O'zganboyev X. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqti matbuotning o'rnini. – Toshkent. 1993.
5. Maqsudov Y. Ulug'lar davrasida. - Sharq yulduzi, № 4, - Toshkent. 1990. – B. 188-196.
6. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Ixtiloflar haqida. – Toshkent. 2003.